

**INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI
O'RNI**

Sodiqova Sabohat Choriyevna

*Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tuman
1-son kasb hunar maktabi Informatika va
axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

Axatov Jasurbek Shuhratovich

Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida chet el innovatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali samaradorlikka erishish shartlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar, bilimlar iqtisodiyoti.

KIRISH

Ayni paytda innovatsion faoliyat bo'yicha bir qator kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. *Birinchi*dan, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriyalar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi; *ikkinchi*dan, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish past darajada ekanligi; *uchinchi*dan, innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi; *to'rtinchi*dan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, budjetdan tashqari va xususiy jamg'armalar mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Innovatsiya” tushunchasi o'zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX-asrning boshida Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu terminni ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan hisoblanadi. O'zining “ijodiy halokat” nazariyasi asosida innovatsion jarayonlarni o'rganib chiqdi va tadbirkorlarning faoliyatini yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishda mavjud narsalardan foydalanishni boshqa zamonaviy usullar sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki

to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshirilishi belgilangan.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy etish orqali mehnat bozori uchun malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni ham keng jalb etishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogika va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida yo'nalishga bo'lgan qiziqishi kundan-kunga kuchayib bormoqda, Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtga qadar ananaviy ta'limda talim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganishi taxlil va xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi, hamda nutqi ravon shakllanadi, dunyo qarashi kengayadi. Ta'lim beruvchi bu jaryonda shaxsiy shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga zamin yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Innovatsion texnologiya ta'lim berish bilan birga tarbiyaning ham roli yuqori ekanligini ko'rsatib beradi, bunda:

- Jamoa bilan ishlash;
- Xushmuomilalik;
- Xushfe'llik;
- O'zgalar fikriga hurmat;
- Faollik
- Raxbarlik faoliyatini shakllantirish ;
- Dunyoqarashining kengaytirish;
- Nutqning ravon va tekis bo'lishi;
- Jamoaviy izlanish ;
- Tortinmasdan o'z fikrini aytish vujudga keladi.

Demak, innovatsion texnologiya asosida ilmiy konsepsiya ta'lim - tarbiya orqali ta'lim oluvchilarda maqsadga erishi uchun falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslarni qamrab oladi. U ta'lim- tarbiya va o'quvchi shaxsini rivojlantirilishini loyihalashtirish, amalga oshirish, natijalarini nazorat qilib baholashdan iborat uzviy bog'liq bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladigan tizim.

Texnologiya, shakl, metodlari va treninglari "Aqliy xujum" guruhlararo ishlarda qo'llaniladi, o'qituvchi savol mavzusi muhokama muammoni hal etish asosida tashkil etiladi . Bu turli g'oyalar ilhom bilan ishlash, ishga qizg'inlik va rag'batlantirishga yetaklovchi metoddir [5].

“MULOQOT” treningi –dars jarayonida mustaqil fikrlashga, erkin holda bayon etish, bahslashish madaniyatni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib kichik guruhlarda o‘tkaziladi .

“BUMERANG” texnologiya–dars jarayonida darsdan tashqari turli adabiyotlar matnlar bilan ishlash o‘rganilgan mavzuni yodda saqlash, so‘zlab berish fikrini erkin bayon etish asosida tashkil etiladi va bir dars davomida barcha o‘quvchilar baholanadi.

“F S M U” texnologiyasi –fikrini bayon etish, fikr bayoniga sabab, sababni tushuntiruvchi misol (isbot) fikrni umumlashtirish asosida tashkil etiladi .

“VEER” texnologiyasi –bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi har biri tomonlari, afzallik fazilatlar va kamchiliklari foyda va zararlari belgilanadi. Bunda tanqid, tahlil, aniq fikr og‘zaki shaklda bayon etiladi va himoya qilinadi .

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- jamiyatda “innovatsiya” va “innovatsion faoliyat” tushunchalarini mazmun va mohiyatini anglashi uchun zarur bo‘lgan bilim. Ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish ko‘lamini kengaytirish;

- yangi qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun va mohiyatini ommaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish;

- innovatsion infratuzilmaning sub‘ektlari innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi kabilar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlanishini ta‘minlash;

- innovatsion klasterlar faoliyatlarini tizimli tashkil etish kabilarni amalga oshirish natijasida Respublikada innovatsion faoliyat yanada rivojlanadi va uning oqibatida innovatsion faoliyatning sifati va samaradorligi ta‘minlanadi. Yangi innovatsiyalar paydo bo‘ladi, insonlar yangilikka intiladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yil O‘RQ- 637-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-576-son.
4. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
5. Shumpeter J. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. M., Direct-Media, 2017. 4.
6. Santo B. Innovatsiya va global intellektualizm // Innovatsiyalar. - 2016 yil - 9-son